

## Ingliz Va O‘zbek Tillaridagi Somatik Maqollarda “Bosh” Konseptining Kognitiv- Semantik Tahlili

*Ilmiy rahbar Ruziyeva Nafisa Zarifovna*  
*Ingliz tilshunosligi kafedrasida o‘qituvchisi, PhD*  
*Buxoro davlat universiteti*  
[n.z.ruziyeva@buxdu.uz](mailto:n.z.ruziyeva@buxdu.uz)

*Magistrant talaba Ziyodullayeva Durdona Tojiddin qizi*  
*Buxoro davlat universiteti*  
[ziyodulloyeva04@icloud.com](mailto:ziyodulloyeva04@icloud.com)

**Abstract:** Ushbu maqolada ingliz va o‘zbek tillaridagi somatik maqollarda “bosh” konseptining kognitiv-semantik xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda “bosh” leksemasining inson tafakkuri, idrok jarayonlari hamda ijtimoiy-madaniy qadriyatlar bilan bog‘liq ma‘nolari qiyosiy yondashuv asosida o‘rganiladi. Har ikki tildagi maqollarda “bosh” obrazi orqali aql, rahbarlik, mas‘uliyat, hayotiy tajriba kabi tushunchalarning ifodalanishi aniqlanadi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, somatik birliklar milliy tafakkur va madaniyatning muhim ko‘zgusi sifatida xizmat qiladi.

**Key words:** somatik maqollar, bosh konsepti, kognitiv semantika, lingvokulturologiya, qiyosiy tahlil, ingliz tili, o‘zbek tili, metafora, konseptual tizim.

### Kirish.

Xalqning til boyligi – uning bo‘yoqdor, serjilo leksikasining, frazeologiya qatlamining boyligi bilan ham o‘lchanadi. O‘zbek tili – ona tilimizning juda boy, ma‘nodor, jozibali va rang-barangligi Navoiy zamonidayoq isbotlangan. Maqollar xalqning ko‘p asrlik hayotiy tajribalari, doimiy kundalik kuzatishlar xulosasini tugal fikr tarzida qat‘iy qutbiylikda ifodalar ekan, ularda har bir so‘zning ma‘no xilma-xilligi, iboralarning turg‘unligi, shaklliy barqarorlik ustunlik qiladi.[1] Grammatik jihatdan gap hoida shakllangan, to‘g‘ri ma‘noda qo‘llaniladigan, xalq donishmandligi natijasida yuzaga keladigan barqaror birikmalar matallar sanaladi. Maqollar va matallar har ikkalasi ham xalqning hayotini uzoq davrlar mobaynida kuzatish orqali hosil qilgan hayotiy tajribasining ixcham shaklda ifoda topishidir. Ushbu maqolamizda barqaror birliklarning tarkibiy qismini tashkil etuvchi somatik ko‘zponentli maqollar xususida so‘z yuritimiz. Jahondagi ko‘plab tillarda yaratilgan maqollarning asosiy qismini somatik ko‘zponentli maqollar tashkil qiladi.[2] Somatik ko‘zponentli maqollarning tarkibidagi somatizmlar, ya‘ni tana a‘zolari nomlarini bildiruvchi so‘zlar qatnashgan birliklardir. Somatik maqollarda har bir xalqning ko‘p asrlik tajribasi, turmush tarzi, madaniyati, ma‘naviyati, urf-odatlar va an‘analari o‘z aksini topgan bo‘ladi.

Masalan:

“ko‘z — qo‘rqoq, qo‘l — botir”  
 “yuragi keng odamning yo‘li ham keng”  
 “bosh omon bo‘lsa, do‘ppi topilar”  
 “two heads are better than one”  
 “Don't bite the hand that feeds you”



“A bird in **hand** is worth two in the bush”[3]

”Home is where the heart is”

“Better be the **head** of a dog than the tail of a lion”

“A wise **head** keeps a still tongue”[4]

Mazkur kurs ishida ingliz va o‘zbek tillaridagi somatik leksik-frazeologik birliklarda “bosh/head” konseptining kognitiv xususiyatlarini aniqlash maqsadida kompleks lingvistik yondashuv qo‘llanildi. Tadqiqot metodologiyasi kognitiv lingvistika, qiyosiy tilshunoslik va semantik tahlil prinsiplari asosida olib borildi.

### Metdologiya.

Tadqiqotning nazariy asosini kognitiv lingvistika yo‘nalishida olib borilgan ilmiy qarashlar tashkil etadi. Xususan, konseptual metafora nazariyasi til birliklari orqali inson tafakkurining qanday shakllanishini tushuntiradi. Ushbu yondashuvga ko‘ra, inson abstrakt tushunchalarni o‘zining jismoniy tajribasi asosida anglaydi. Shuningdek, konseptual metonimiya nazariyasi bir konsept doirasidagi elementlar o‘rtasidagi semantik yaqinlikni ochib beradi. Shu bilan birga, konsept tushunchasi inson ongidagi bilimlar, tajribalar va madaniy tasavvurlar majmui sifatida talqin qilinadi[5].

Mazkur ishda bir nechta ilmiy metodlardan foydalanildi. Avvalo, tavsifiy (deskriptiv) metod orqali o‘zbek va ingliz tillaridagi somatik birliklarning semantik xususiyatlari izohlandi. Ushbu metod til birliklarining ma‘nosi va qo‘llanish doirasini aniqlash imkonini berdi. Bundan tashqari, qiyosiy (komparativ) metod yordamida ikki til materiallari o‘zaro taqqoslanib, ularning o‘xshash va farqli jihatlari tahlil qilindi. Bu yondashuv orqali “bosh/head” konseptining universalligi va milliy-madaniy xususiyatlari ochib berildi. [6]

Tadqiqot jarayonida kognitiv-semantik tahlil metodi ham muhim o‘rin tutdi. Ushbu metod yordamida somatik birliklarning ortida yotgan konseptual ma‘nolar, xususan, aql, boshqaruv, emotsiya va hayot bilan bog‘liq semantik kengayishlar aniqlashtirildi. Shuningdek, kontekstual tahlil asosida maqollar va frazeologik birliklarning nutqdagi qo‘llanish xususiyatlari ko‘rib chiqildi.

Material tanlashda o‘zbek va ingliz tillaridagi maqollar, frazeologik birliklar va kundalik nutqda qo‘llaniladigan iboralar asos qilib olindi. Tanlangan birliklar semantik guruhlariga ajratilib, ular orqali “bosh/head” konseptining turli ma‘nolari tizimli ravishda tahlil qilindi. [7]

“Bosh” konseptining semantik kengayishida konseptual metafora muhim rol o‘ynaydi. Kognitiv tilshunoslikda metafora konkret tajribadan kelib chiqib, abstrakt tushunchalarni tushunish mexanizmi sifatida qaraladi. “Bosh” konsepti asosida shakllangan asosiy metaforalardan biri *mind is head* metaforasidir, bunda bosh tafakkur markazi sifatida talqin etiladi va “Boshim ishlamayapti” kabi iboralarda o‘z ifodasini topadi. Yana bir muhim metafora *control is head* yoki *control is up* bo‘lib, bunda boshning yuqorida joylashganligi nazorat va hokimiyat tushunchalari bilan bog‘lanadi. “O‘z boshim bor” iborasi aynan shu metaforik modelga asoslanadi. Shuningdek, *leader is head* metaforasi orqali bosh ijtimoiy ierarxiyada yetakchilikni bildiradi, bu “boshliq” leksemasida mustahkamlangan. Misol uchun: “Where there is a head, there is order”, “better be the head of a dog than the tail of a lion”, “No head, no direction”, “everybody needs a head”, “bosh bo‘lmagan yerda tartib bo‘lmaydi”, “bosh bor joyda ish bor”. *Life is head* metaforasi esa boshni hayot markazi sifatida konseptuallashtiradi va bu “Bosh omon bo‘lsa, do‘ppi topiladi” kabi maqollarda o‘z aksini topadi.[8]

Konseptual metonimiya ham “bosh” konseptining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Metonimiya bir konsept doirasida elementlar o‘rtasidagi yaqinlikka asoslangan semantik ko‘chishni anglatadi. “Bosh” konseptida *head* → *mind* modeli orqali bosh tafakkurni bildiradi. Masalan: “A good head makes a good decision”, “a clear head solves problems”, “a wise head never rushes”, “bosh ishlasa, yo‘l topiladi”, “aqli bosh adashmaydi”, “boshim qotdi”, *head* → *person* modeli orqali esa butun insonni ifodalaydi. Masalan: “Every head has its own worries”, “more heads mean more ideas”, “two heads are better than one”, “a wise head keeps a still tongue”, “har boshning o‘z tashvishi bor”, “har boshning o‘z tashvishi bor”, “har boshga har xil taqdir”, “bir boshdan ikki bosh yaxshi”, “bosh ko‘paysa, maslahat ko‘payadi”. Bundan tashqari, *head* → *life* modeli orqali bosh hayot bilan tenglashtiriladi. Masalan: “Keep your head and you will survive”, “Lose your head, lose your life”, “With a clear head, life stays safe”, “No head, no life”, “Tirik bosh – ming imkon”, “Bosh omon bo‘lsa, do‘ppi topiladi”. Bu holatlar tana a‘zosi orqali murakkab psixologik va ekzistensial tushunchalarning ifodalanishini ko‘rsatadi.[9]




### Natijalar va muhokama.

Mazkur konseptning shakllanishida stereotiplar ham muhim o‘rin tutadi. Stereotiplar jamiyat ongida shakllangan umumiy tasavvurlar bo‘lib, ular til birliklari orqali mustahkamlanadi. “Bosh” konsepti bilan bog‘liq stereotiplarga ko‘ra, boshga ega bo‘lgan inson dono va tafakkurli sifatida tasavvur etiladi, mustaqillik esa “o‘z boshiga ega bo‘lish” orqali ifodalanadi. Shuningdek, bosh hayotning eng muhim belgisi sifatida qadrlanadi va rahbarlik ham aynan bosh bilan bog‘lanadi. Bu stereotiplar o‘zbek milliy dunyoqarashining muhim jihatlarini aks ettiradi.[10]

### №1 jadval -“bosh/head” konseptining asosiy kognitiv- semantik maydonlari

Konseptual ma’no	O‘zbek tilida	Ingliz tilida
Aql va fikrlash	Bosh bilan o‘yla Boshini ishlatgan yo‘l topadi Bosh bor joyda aql bor Boshini qotirmoq Boshiga qarab ish tut Boshini yo‘qotmoq (fikriy jihatdan) Boshini aylantirmoq	Use your head Have a good head on your shoulders A clear head makes a wise decision Keep a level head A thinking head is a powerful tool A clever head finds a way A calm head solves problems A head full of ideas
Boshqaruv va rahbarlik	Bosh bo‘lgan joyda tartib bo‘ladi Ikki bosh bir boshdan yaxshi Boshiga chiqmoq Boshiga ko‘tarib yurmoq Boshiga chiqib olmoq Boshini qo‘yib bermoq	The head rules the body Head of the state Head of the department A strong head leads the way Put your heads together The head guides the hand
Hayot va mavjudlik	Bosh omon bo‘lsa do‘ppi topiladi Bosh bor joyda hayot bor Boshiga kelganini ko‘rmoq Boshidan o‘tgan boshdan o‘tar	Keep your head above water Save your head Keep your head alive A head in danger thinks fast
Emotsional va ruhiy holat	Boshi og‘ridi Boshi aylanmoq Boshini yo‘qotmoq Boshini olib qochmoq Boshiga tosh tushganday bo‘lmoq	Lose your head Keep your head Head in the clouds Bite someone’s head off A cool head wins the day
Javobgarlik	It will cost you your head Heads roll when mistakes are made The head carries the burden Head first into trouble	Boshiga ish tushsa bilinar Boshiga balo orttirmoq Boshiga tashvish ortmoq Boshiga og‘ir kun tushmoq Boshiga kulfat tushmoq





Olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki:

60% maqollarda bosh – aql bilan bog'liq

45% maqollarda bosh – boshqaruv

40% maqollarda bosh- javobgarlik bilan bog'liq. [11]

Kognitiv tahlilda yana muhim tushuncha bu frame (freym) bo'lib, u ma'lum vaziyat yoki bilimni faollashtiruvchi mental ssenariy sifatida talqin qilinadi. Masalan, **“Bosh omon bo'lsa, do'ppi topiladi”** iborasi hayotni saqlash va omon qolish freymini faollashtiradi. Shu bilan birga, kognitiv sxema (image schema) inson ongida takroriy tajribalar asosida shakllangan umumiy bilim modeli bo'lib, u yangi ma'lumotni tez va oson tushunishga yordam beradi. Masalan, “yuqori” konsepti ko'pincha ustunlik va nazoratni, “ichki” konsepti esa hissiy holatni ifodalaydi.[12]

Mazkur tadqiqot davomida ingliz va o'zbek tillaridagi somatik leksik-frazeologik birliklarda “bosh/head” va qisman “yurak/heart” konseptlari kognitiv lingvistika nuqtayi nazaridan tahlil qilindi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, somatik birliklar tilning eng qadimiy va universal qatlamlaridan biri bo'lib, ular insonning bevosita jismoniy tajribasi asosida shakllanadi va abstrakt tushunchalarni ifodalashda muhim vosita vazifasini bajaradi.[13]

Shuningdek, tadqiqot davomida konseptual metafora va metonimiya mexanizmlarining somatik birliklar shakllanishida muhim rol o'ynashi aniqlandi.[14] Metafora orqali abstrakt tushunchalar tana a'zolari orqali tushuntirilsa, metonimiya orqali esa tana a'zosi butun inson yoki uning holatini ifodalash uchun xizmat qiladi.[15]



**Xulosa.**

Umuman olganda, somatik konseptlar, xususan “bosh/head” konsepti inson tafakkurining universal modeli sifatida namoyon bo‘lib, til orqali insonning dunyoni qanday idrok etishini ochib beradi. Ushbu tadqiqot natijalari kognitiv lingvistika, qiyosiy tilshunoslik va frazeologiya sohalarida olib boriladigan keyingi ilmiy izlanishlar uchun muhim nazariy va amaliy asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

**References Used**

- [1] G. Lakoff and M. Johnson, *Metaphors We Live By*. Chicago: University of Chicago Press, 2003.
- [2] Z. Kövecses, *Metaphor: A Practical Introduction*, 2nd ed. Oxford: Oxford University Press, 2010.
- [3] A. Wierzbicka, *Semantics, Culture, and Cognition: Universal Human Concepts in Culture-Specific Configurations*. Oxford: Oxford University Press, 1992.
- [4] C. Bally, *Traité de stylistique française*. Geneva: Librairie Georg, 1965.
- [5] A. V. Kunin, *English-Russian Phraseological Dictionary*. Moscow: Russian Language Publishers, 1984.
- [6] R. Gläser, “The Stylistic Potential of Phraseological Units in the Light of Genre Analysis,” Berlin: Mouton de Gruyter, 1988.
- [7] W. Mieder, *Proverbs: A Handbook*. Westport: Greenwood Press, 2004.
- [8] R. A. Spears, *McGraw-Hill’s Dictionary of American Idioms and Phrasal Verbs*. New York: McGraw-Hill, 2005.
- [9] Oxford University Press, *Oxford Dictionary of Proverbs*. Oxford: Oxford University Press, 2015.
- [10] N. Mahmudov, *O‘zbek tilining izohli lug‘ati*. Tashkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2012.
- [11] Sh. Rahmatullayev, *O‘zbek tilining frazeologik lug‘ati*. Tashkent: O‘qituvchi nashriyoti, 2006.
- [12] O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi, *O‘zbek xalq maqollari*. Tashkent: Fan nashriyoti, 1987.
- [13] G. N. Leech, *Semantics: The Study of Meaning*, 2nd ed. Harmondsworth: Penguin Books, 1981.
- [14] J. Saeed, *Semantics*, 3rd ed. Oxford: Wiley-Blackwell, 2009.
- [15] D. Crystal, *The Cambridge Encyclopedia of Language*, 3rd ed. Cambridge: Cambridge University Press, 2010.

